



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70410102 – Iqtisodiyot
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70410102 – Iqtisodiyot

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SAYDALIYEV XAYOT ODILBEKOVICH

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

fan doktori (DSc), professor



A'zo: LEE CHIN

Universiti Putra Malaysia

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1115
Xulosa sanasi	19.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy. Guvohnoma: MAS № 0000257, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Iqtisodiyot
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70410102
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000257, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70410102 – Iqtisodiyot
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70410102 – Economics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70410102 – Экономика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	15 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, asoslovchi materiallar hamda statistik ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini tashkil etish va boshqarishga oid zarur hujjatlar to'liq shakllantirilgani hamda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgani aniqlandi. Tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari va mas'uliyat doiralari aniq belgilangan, ichki sifatni ta'minlash hamda ta'lim jarayonini monitoring qilish mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan. Tahlillar davomida mazkur yo'nalish bo'yicha akkreditatsiya mezonlariga zid holatlar yoki nomuvofiqliklar aniqlanmadi. Masofaviy magistratura ta'lim dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, boshqaruv jarayonlari va ta'lim sifatini nazorat qilishning raqamli platformalar orqali tashkil etilgani dastur samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. O'tkazilgan tahlillar natijasida tashkiliy-boshqaruv va ichki sifatni ta'minlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga muvofiq ekanligi qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, o'quv-me'yoriy hujjatlar, fan dasturlari, malaka talablari hamda asoslovchi materiallar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturining mazmuni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgani, barcha zarur o'quv-me'yoriy hujjatlar tizimli ravishda ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda yuritilayotgani aniqlandi. Joyida o'tkazilgan kuzatuv davomida hujjatlarning yuritilishi va saqlanishi bo'yicha belgilangan talablardan chetga chiqish holatlari kuzatilmadi. Ta'lim dasturida iqtisodiyot magistraturasining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, nazariy iqtisodiy bilimlarni ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi. Bu yondashuv magistrantlarda mustaqil ilmiy izlanish

olib borish, tahliliy fikrlash va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dastur yakunida bitiruvchiga "Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi" kvalifikatsiyasi berilishi belgilangan. O'tkazilgan tahlillar ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq ishlab chiqilganini ko'rsatdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida 70410102 – "Iqtisodiyot" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minot hamda ta'lim natijalarini baholash tizimiga oid hujjatlar va amaliyot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida mutaxassislik bo'yicha o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur me'yoriy-uslubiy asoslar shakllantirilgani, o'quv rejalari va fan dasturlarining ta'lim dasturi maqsadlari bilan uzviy bog'liqligi ta'minlangani aniqlandi. Ta'lim natijalarini baholash mezonlari talabalarga ochiq yetkazilishi hamda ularning shaffofligi amaldagi tartiblar asosida yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Masofaviy magistratura ta'limining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, baholash jarayonlarini onlayn nazorat vositalari orqali tashkil etish va akademik halollik tamoyillariga qat'iy rioya etilishi ta'lim sifati va baholashning xolisligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etildi. O'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsad hamda kutilayotgan natijalariga erishish uchun zarur sharoitlarni yaratishi qayd etildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida "Iqtisodiyot (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha talabalar faoliyatini tashkil etish, qabul jarayonlari, talabalar harakatini boshqarish hamda qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar va amaliyot kompleks o'rganildi. Tahlillar natijasida qabul jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani, qabul mezonlari va apellyatsiya tartiblari belgilangan tartibda joriy etilgani aniqlandi. Talabalar kontingentini shakllantirishda ta'lim muassasasining mavjud infratuzilma imkoniyatlari, o'quv-uslubiy resurslari hamda professor-o'qituvchilar salohiyati inobatga olingani qayd etildi. Xususan, qabul parametrlarining mavjud infratuzilma imkoniyatlari bilan mutanosib belgilanishi ta'lim jarayonining sifatini barqaror ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Shuningdek, magistrantlarni akademik, axborot va maslahat yo'nalishlarida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amalda qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi e'tirof etildi. O'tkazilgan

tahlillar talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida "Iqtisodiyot (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturining inson resurslari bilan ta'minlanganlik holati, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar tarkibi, ularning malakasi, shuningdek kadrlarni jalb etish, rivojlantirish va rag'batlantirish tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kadrlar salohiyati shakllantirilgani, professor-o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik salohiyati magistratura bosqichi talablariga mos kelishi aniqlandi. Kadrlar zaxirasini yaratish, malaka oshirish hamda xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar joriy etilgani qayd etildi. Magistratura bosqichida ilmiy rahbarlarning malakasi va ilmiy-tadqiqot tajribasi magistrlik dissertatsiyalarining sifati hamda ilmiy natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi inobatga olinib, professor-o'qituvchilarning masofaviy ta'lim texnologiyalari va onlayn pedagogika metodikasi bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Mavjud inson resurslari salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi qayd etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida "Iqtisodiyot (masofaviy)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, o'quv va laboratoriya xonalarining jihozlanganlik darajasi, Axborot-resurs markazi, inklyuziv ta'lim infratuzilmasi hamda raqamli ta'lim muhitiga oid hujjatlar va mavjud sharoitlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti shakllantirilgani aniqlandi. Masofaviy magistratura dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, barqaror faoliyat yurituvchi ta'limni boshqarish tizimi (LMS), elektron ta'lim resurslari va raqamli xizmatlarning mavjudligi ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholandi. Shu bilan birga, magistrantlarning ilmiy izlanishlari va tahliliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiy statistik ma'lumotlar bazalari hamda xalqaro ilmiy resurslardan masofadan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Mavjud moddiy-texnik va raqamli infratuzilma ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Iqtisodiy statistik ma'lumotlar bazalariga masofaviy kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Masofaviy o'qitish metodikasi bo'yicha malaka oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Iqtisodiy statistik ma'lumotlar bazalariga masofaviy kirishni kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy rahbarlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Masofaviy o'qitish metodikasi bo'yicha malaka oshirishni davom ettirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 70410102 – "Iqtisodiyot" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, o'quv-uslubiy va me'yoriy hujjatlar to'liq shakllantirilgani, ularning amaldagi talablarga muvofiq yuritilayotgani hamda mazkur yo'nalish bo'yicha jiddiy nomuvofiqliklar aniqlanmagani qayd etildi. Ta'lim dasturining mazmuni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi, jumladan masofaviy ta'lim sharoitida akademik halollikni ta'minlash mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan. Talabalarni qabul qilish, ularning akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini boshqarish tizimi belgilangan tartibda tashkil etilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibi hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar mavjud. Moddiy-texnik baza, Axborot-resurs markazi, inklyuziv ta'lim infratuzilmasi va raqamli ta'lim muhiti magistratura ta'lim dasturini samarali amalga oshirish

uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi. O'rganish davomida bildirilgan tavsiyalar ta'lim dasturini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, uning sifatli amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

